

"Kimyo atamalarining izohli lug'ati" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi

// 01.12.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-atamalarining-izohli-lug-ati-kitobi-taqdimoti-bo-lib-o>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni ijrosi bo'yicha "Kimyo atamalarining izohli lug'ati"ni yaratish va nashr etish alohida vazifa sifatida belgilangan.



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ da "Kimyo atamalarining izohli lug'ati" kitobining taqdimot marosimi bo'ldi. Marosimda "O'zkimyosanoat" AJ xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malakasini oshirish markazi vakillari, vazirliklar va idoralar, tarmoq korxonalari rahbarlarining davlat tili bo'yicha maslahatchilari, tilshunos-olimlar ishtirok etishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar, mamlakatimiz kimyo ilm-fani va sanoati tarixida ilk bor oʻzbek tilida tayyorlangan va nashr etilgan lugʻat taqdimoti bilan tabrikladi. “Kimyo atamalarining izohli lugʻati”ni yaratishda ishtirok etgan barcha tilshunos-olimlar, professorlarga minnatdorchilik izhor etildi.



TAQDIMOT

11.00 - 11.05	Moderator: Sanobar Ab
11.05 - 11.15	Kirish so'zi Muxammadja
11.15 - 11.25	Xalqaro rivojlanish
11.25 - 11.35	Tarbiyaviy a'rbosari
11.35 - 11.45	Qurbonov S
11.45 - 12.00	Imomjon Az Daxlat tili
12.00 - 12.20	To'liq N

**"O'zbekimiyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI**

  [uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)   [uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat.uz)  **(+99878) 140-74-26**



Ma'lumot o'rnida: "Kimyo atamalarining izohli lug'ati" 2023-yili G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 3000 nusxada chop etilgan. Lug'atda noorganik, fizik, analitik va biokimyo, kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari bo'yicha 4123 mingga yaqin eng ko'p ishlatiladigan o'zbek, ingliz va rus tillaridagi qisqacha izohi keltirilgan. Mazkur lug'at tadqiqotchilar, texnologlar, tarjimonlar, o'qituvchilar, doktorantlar, kimyo fakultetlari va universiteti talabalari uchun mo'ljallangan.

Kitob "O'zkimyosanoat" AJ soha mutaxassislari bilan hamkorlikda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari tomonidan tayyorlangan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati